

FITRAT VA MUNAVVAR QORI FAOLIYATINING MUHIM
QIRRALARI

MUHAMMEDOV AZIXON ULUG‘BEK O‘G‘LI

TDTr.U talabasi.

Ilmiy raxbar: Salimov Baxriddin Lutfullaevich

Annotatsiya: *Fitratning ma‘naviyat, madaniyat, adabiyot, maorif va siyosat haqidagi aytgan fikrlari hozir dolzarb bo‘lib qoldi. Fitratdagi oddiy, lekin falsafiy fikrlar biror kishini loqayd qoldirmaydi. Yuksaklikka ko‘tarilishiga yordam beradi. Munavvar qorining boshqa asarlarida ham hayotiy voqealar kundalik turmush tarzi, siyosiy jarayonlar mohirlik bilan yoritilganki, bunday holat yuksak ma‘naviyatlilikdan dalolat edi.*

Kalit so‘zlar: *Fitrat, Munavvar qori, ma‘naviyat, madaniyat, adabiyot, maorif va siyosat.*

Abstract: *Fitrat's thoughts about spirituality, culture, literature, education and politics are now relevant. Simple, but philosophical thoughts in Fitrat will not leave anyone indifferent. It helps to rise in height. In other works of Munavvar Kari, life events, daily lifestyle, political processes were skillfully covered, which was a sign of high spirituality.*

Key words: *Fitrat, Munavvar qori, spirituality, culture, literature, education and politics.*

Cho‘lpon ta‘kidlashicha o‘sha davrdagi barcha ilg‘or kishilar Fitratning «Chin sevish» pesasini sahnada ko‘rib hayratda qoladi. Cho‘lpon u haqda taqriz yozadi va asardan mamnun bo‘lganini quyidagicha ifodalaydi:

«Yaqinda o‘zbek sahnasi ulug‘ va ulug‘ligi qadar yuksak va go‘zal tomosha pesa ko‘rdi... Asar to‘g‘risida fikr yurituvdan qochmoqqa va o‘zimni tortishga majburman. Tegishincha taqriz qiluvni men bajara olmayman».

Pesa to‘g‘risida shuningdek fikrni mashhur adib Vadud Mahmud ham quyidagicha izohg‘laydi: «O‘zbek sahnalarida shu kungacha o‘ynalib kelgan

pesalarning eng kuchlisi. Eng buyugi o‘tkir yozuvchimiz Fitratning hind turmushidan olib yozilgan «Chin sevish» pesasi ekanligini hamma iqrora etsa kerak». «Qizil bayroq» gazetasi, 1920 yil, 12 dekabr.

Hozirgi davrda Fitratning faolligini o‘rganuvchilar miqdori kundankunga oshib borayotir. Uning sababi tushunarli albatta. Chunki, 80-90 yillar oldin Fitratning ma’naviyat, madaniyat, adabiyot, maorif va siyosat haqidagi aytgan fikrlari hozir dolzarb bo‘lib qoldi. Fitratdagi oddiy, lekin falsafiy fikrlar biror kishini loqayd qoldirmaydi. Yuksaklikka ko‘tarilishiga yordam beradi. Masalan, “Hind sayyohi” asarida /arbiy Yevropa madaniyati bilan yaqindan tanish bo‘lgan sayyohni fikrlari orqali mamlakat aholisini qaloqlikdan chiqishga, ilm-fanni egallashga, texnikani, sanoatni rivojlantirishga yetuk mutaxassislar darajasiga ko‘tarilishga chorlaydi.

Sayyoh qarshiliklarni hunarmandligiga qoyil qolib: «Obdasta yasash, gilam to‘qishda, ayniqsa olacha to‘qishda tengi yo‘qdir. Biroq shu narsalarni eski usulda tayyorlaydilar, ya’ni korxonalarining barchasida qo‘l mehnatidir. Mashina bilan ishlovchi korxonalariga ega emaslar va hatto uni yaratish hayoli ham yo‘q»- deb achinadi, ustalarining loqaydligidan noliydi. Kuyib-pishib, hind sayyohi: Qarshida to‘qilgan olachaning Rossiyaning ipak matolariga nisbatan pishiq, deb ta’kidlasa ham hunarmand pinagini buzmay «o‘n yildan keyin kim tirigu, kim o‘lik» deydi, loqaydlik bilan. Sayyoh o‘z fikrini oxiriga yetkazish uchun erinmasdan kelajakni yodiga keltirmagan hunarmandga yana shunday yondoshadi:

«Faraz etaylik, sizning umringiz oxiriga yetmoqda, biroq farzandlaringiz, nabiralaringiz nima bilan shug‘ulanishadi? Usta janoblari, siz kelajak haqida fikr yurtishni unutmang, chunki dunyoda har bir kishi o‘z ishining kelajagi bilan bog‘liq. Kelajakni o‘ylash – olamning obodonligi boisidir...».

Bu fikrlar bilan Fitrat sayyoh fikri orqali yuksak ma’naviyatga va barcha sohalarda taraqqiyotsiz erishib bo‘lmasligini hayotiy voqealar bilan tasvirlaydi. Xalqqa sodda va ravon qilib yetkazadi. Mamlakat ravnaqi faqat xom mahsulot yetishtirishda emas balki, uni mamlakat ichkarisida qayta ishlashda ekanligini uqdiradi va sayyoh tilidan aytadi: «Ko‘rdingizmi, o‘sha vaqtda turkistonliklar

zarur hamma mollarni o‘zlari tayyorlar edilar, o‘zlari sarflar edilar pulni o‘z cho‘ntaklaridan chiqarib, o‘z cho‘ntaklariga solar edilar. Hatto bir chaqa ham pulni begona fabrikantlar cho‘ntagiga solmaganlar. Biroq Yevropa fabrikantlari birin-ketin nozik surp, harir dokalar va chiroyli, gulli chinni tovoqlar ishlab chiqarib butun Turkiston bozorlarini to‘ldirdilar. Aholi birdaniga bunday serjilo mollarga qarab intildi va doka, karvos va o‘zlarining boshqa milliy tovoqlariga qaramay qo‘ydi. Oqibat shu bo‘ldiki, ... to‘quvchi do‘konlar... korxonalar to‘xtab qoldi, ularning egalari istasa – istamasa, ishlaridan qo‘l uzib, ayrimlari hammomlik bilan shug‘ullanadilar, boshqa birovlari esa, xizmatkor bo‘lib, hasrat va nadomat bilan bir dunyodan ko‘z yumdilar...»

Umuman Abdurauf Fitrat o‘zining butun faoliyatini, insonlar kelajagiga bag‘ishladi. Uning barcha asarlari ommani faqat ma‘rifatli bo‘lishga chorlabgina qolmadi. Balki, barcha insonlarni ogohlikka chaqirdi. O‘zbek xalqi boy madaniy, ma‘naviy merosga ega ekanligini targ‘ib qildi. O‘z asarlarida yuksak ma‘naviylik nazariyalarini yaratdi ekan, butun umri davomida ularni hayotga tatbiq etishni namunasini ko‘rsatadi.

Jadidlarning yirik vakillaridan yana biri Munavvar qori Abdurashidxonovdir.

Odatda xalq o‘rtasida «ismi jismiga» monand degan fikr yuradi. Aynan bu fikr Munavvar Qori Abdurashidxonovda o‘z aksini topgan desak, xato bo‘lmaydi. Ya‘ni «Munavvar degan, nur olgan, nurli» bo‘lsa «qori» so‘zi Qur‘onni maromiga yetkazib o‘qiydigan inson tushunilgan. Zero, Munavvar Qori butun faoliyatida nur tarqatishi yoki aniqroq aytadigan bo‘lsak insonlarni shu nur orqali ziyoli bo‘lishga chorladi. O‘zi esa barchaga namuna bo‘ldi.

Munavar qori XIX asrning 90-yillarida jadidchilik faoliyatiga qo‘shilgan bo‘lsa, XX asrning birinchi yillaridayoq «usuli jadid» maktabini birinchilar qatorida ochib ular uchun darslik va qo‘llanmalar yozib nashr qildi. «Adibi avval», «Adibi soniy», «Tavjid al-qur‘on» (qur‘on, qiroati), «Er yuzi» (geografiya) kabilar shular jumlasidandir. Bu darslik va qo‘llanmalar 1901-1917 yillar ichida 9-10 marotabagacha alohida-alohida nashr etilgan. Bu nashrlarning hammasida marifatparvarlik g‘oyalari o‘z aksini topgan edi. Alloma o‘sha vaqtda

ma'rifatparvarlikka oid barcha ishlarni qo'llab-quvvatlagan edi.. 1914 yilda Toshkentda M. Behbudiyning «Padarkush» dramasi birinchi marotaba sahnaga qo'yilishi munosabati bilan u kishi tomosha oldidan teatr va uning ahamiyati haqida nutq so'zlaydi. Shu munosabat bilan Munavvar qorining fikrlari haqida shoir Tavallo quyidagi she'rni yozgan, unda shunday fikrlar bor:

«Cho'h munavvar etti olamni Munavvarqorimiz,
Ko'rdimiz ravshanlig'idin fe'limiz, atvorimiz.
Ibrat oling yoshlar, deb to'kdi ko'zdin yoshlar,
Nutqida tahrir edub, bizlarni yo'qu borimiz.
Chun ko'nguldan biz eshitduk, chin- achig' aytgan so'zi,
Shuncha bid'atlarni bilduk, voy, biz iqormiz».

Munavvar Qori «Taraqqiy» gazetasining tashkilotchilaridan hisoblanadi. «Xurshid» gazetasini esa asosichisidir. «Sadoi Turkiston» gazetasini chiqarishda ham jonbozlik ko'rsatgan. 1917 yilga kelib «Najot» gazetasini chiqargan.

Uning tashkilotchiligi, milliy manfaat izidan harakat qilishi oliy vatanparvarlik namunasi edi. Kishi amalga oshirgan ishlar bir insonning bir umriga tugul balki avlod – avlodlarga yetar edi. Ammo, Munavvar qori mazkur qilingan ishlar bilan cheklanib qolmadi. Faoliyatini qizg'in davom ettirdi. Ma'rifatparvar jadidlar bilan birga «Jamiyati xayriya»ni tuzdi. 1913 yilda esa «Turon» jamiyatini ta'sis etdi. «Maktab», «Nashriyot» kabi shirkatlar ochdi. Maqsad yoshlarni o'z Vatani uchun harakat qilishga. Vatanparvar bo'lishga chorlash edi. Ularni xorijiy mamlakatlardagi dunyoviy bilimlardan xabardor qilish hamda ularning o'zlarini xorijiy mamlakatlarda bo'lib kelishga yordamlashish edi.

Munavvar Qorining maqola va asarlarida nafaqat o'zi yashagan davr yoki kelajak aks etgandi balki, tarixiy voqealar ham keng yoritilgandi. Jumladan «Adibi Soniy» asaridagi hikoyalaridan birida «Iskandar va Arastu» faoliyatini sodda, qiziqarli qilib o'quvchilarga yetkazadi: «O'tgan zamonda Iskandari Rumiylar bir podshoh bor edi,- deb boshlanadi hikoya. – Oning Arastu otlig' bir olim va dono otasi bor edi. Iskandar Arastuni o'z yoniga bosh vazir qilub, barcha mamlakat ishlarini topshurmish edi. Bir ish qilsa, shuning maslahati ila qilur edi.

Eshikdan kelsa o‘rnidan turub, joy berur edi. O‘zining otasidan ortuq izzat va hg‘urmat qulurdi. Bir kun vazirlardan biri Iskandardan so‘radiki: «Na uchun Arastuni otangizdan ortuq izzat qilursiz?»

Iskandar aytdi:

«Otam go‘yoki meni osmondan yerga tushurdi. Ammo ustozim Arastu meni yerdan osmonga ko‘tardi. Ya’ni otam meni dunyoga kelmog‘imga sabab bo‘ldi. Shuning uchun ustozimni otamdan ortuq izzat qilurman».

Bu hikoyadan hissa nadur? Bolalarning o‘zlari topsunlar».

Munavvar qorining boshqa asarlarida ham hayotiy voqealar kundalik turmush tarzi, siyosiy jarayonlar mohirlik bilan yortilganki, bunday holat yuksak ma’naviyatlilikdan dalolat edi. Shu munosabat bilan aytish mumkinki, Munavvar qori Abdurashidxonov o‘zbek matbuotini asoschilaridan hamda millat tarixida birinchi navbatda yirik jamoat va siyosiy arbob sifatida tarixda qoldi. Butun faoliyatini Millat va Vatan taraqqiyotiga bag‘ishladi. Ozodlik uchun tinmay kurash olib bordi. O‘z vaqtida u oktyabr inqilobini tashvish va sarosima bilan kutib olgan edi. Qo‘qon (Turkiston) muxtoriyati tarafida bo‘ldi. Muxtoriyat bostirilganda, u afsuslandi. Xalqni ma’lumotli qilish yo‘llarini izladi.

1918 yilning bahorida Turkiston xalq dorilfunining musulmon bo‘limini tuzdi va unga qisqa muddatda bo‘lsa ham rektorlik qildi, tilshunoslikdan dars berdi. Bu bilan O‘zbekistonda Oliy ta’limni paydo bo‘lishida o‘z hissasini qo‘shdi.

Aytish lozimki, Munavvar qori sho‘rolar tuzimiga qarshi chiqqan va qarshi kurashgan vatanparvarlardan edi. Natijada, o‘sha paytdagi qora kuchlar uni qamoqqa oladilar. Lekin biroz vaqtdan so‘ng qamoqdan ozod qilinadi. So‘ng o‘qituvchilik bilan shug‘ullanadi. Jadidchilik tarafdori sifatida to‘la faoliyat ko‘rsatadi. Ikkinchi marotaba ya’ni 1929 yilda yana qamoqqa olinadi. Unga millatchi «tamg‘a»si bosilib 1931 yilda xalq dushmani sifatida otib tashlanadi. Ming afsuslar bo‘lsinki, xalq uchun butun umrini bag‘ishlagan inson oxir – oqibat xalq dushmaniga aylantiriladi.

Bunday holatlar o‘sha yillarda avjiga chiqib xalq farzandlari turli niqoblar bilan yo‘q qilinadilar. Maqsad jadidlarning ezgu niyatlari, ya’ni xalk

ma'rifatparvarligi, yuksak ma'naviyat homiylarini tugatish edi. Ma'lum ma'noda o'sha davr laganbardorlari bunga erishdilar ham.

REFERENCES

1. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов, Севинч Акмаловна Тоғаева. [ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПРОБЛЕМ СОЦИАЛЬНОГО СОЗНАНИЯ В ФИЛОСОФИИ](#). STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS. Vol. 1 No. 2 (2024). P. 52-55.
2. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов, Шавкатова Сарвинозхон Лазиз кизи. РАЗЛИЧНЫЕ АСПЕКТЫ ИСТОРИИ ФИЛОСОФИИ. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS. Vol. 1 No. 2 (2024). P. 60-63.
3. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов, Ёралова Дилноза Орифбой кизи. РОЛЬ ФИЛОСОФИИ В ФОРМИРОВАНИИ МИРОВОЗЗРЕНИЯ. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS. Vol. 1 No. 2 (2024). P. 56-59.
4. Салимов, Бахриддин Лутфуллаевич, Абдусатторов, Фатхулла Хайрулла Ёғли, & Ганибоев, Дилмурод Анваржон Ёғли (2023). ТЕНГЛИК ВА БАХТ ТУШУНЧАЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ МУНОСАБАТЛАРДА ТУТГАН ЁРНИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (3), 16-21.
5. Салимов, Бахриддин Лутфуллаевич, Абдухоликов, Диёрбек Сайрбек Ёғли, & Комилов, Фарходжон Абдусамин Ёғли. (2023). ИЖТИМОЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРУВЧИ ВА ТАРТИБГА СОЛИБ ТУРУВЧИ МУҲИМ ОМИЛЛАР. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (3), 41-46.
6. Салимов , Б. Л., Файзиев , С. Ф., & Курамбаев , Ж. (2022). ЕВРОПА ОЛИМЛАРИНИНГ АСАРЛАРИДА ИНСОН ВА ИЖТИМОЙ МУНОСАБАТЛАРНИНГ ЁЗАРО АЛОҚАДОРЛИГИНИНГ ТАҲЛИЛИ. Journal of Integrated Education and Research, 1(6), 44–50.